



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O‘ZBEK BOZORLARIDA SHAKLLANGAN XALQONA LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Sevara BOZOROVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek an’anaviy bozorlarida shakllangan xalqona nutq birliklari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Bozor muhitida qo‘llaniladigan o‘ziga xos so‘z va iboralar xalqning dunyoqarashi, iqtisodiy tajribasi hamda madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu birliklarning xalq og‘zaki ijodi va til taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rsatilib, bozor leksikasini o‘rganishning dolzarbligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari bozor nutqi orqali xalq tafakkuri, til boyligi va madaniyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Maqolada bu birliklar nafaqat til boyligi sifatida, balki xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, iqtisodiy tajribasi va nutq madaniyatining ko‘zgusi sifatida ham talqin qilinadi. Shu orqali o‘zbek tilining leksik-semantik qatlamida bozor leksikasining o‘rni aniqlanadi va kelajakda uni alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllantirishga zamin yaratiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek bozor leksikasi, iboralar, frazeologik birliklar, metafora, mubolag‘a, kinoya, lingvokulturologiya, semantik qatlam, og‘zaki nutq, nutqiy birliklar, so‘zlashuv uslubi.

Linguistic Analysis Of International Lexical Units Formed in Uzbekistan Markets

Abstract

This article provides a linguistic analysis of colloquial lexical units formed in traditional Uzbek marketplaces. The specific words and expressions used in the market sphere are directly connected with the worldview, economic experience, and cultural values of the people. The role of these units in oral folklore and the development of the language is revealed, and the relevance of studying market lexicon is emphasized. The results of the research demonstrate that market speech serves as a means of analyzing people’s mentality, linguistic richness, and culture.

In the article, these units are interpreted not only as a component of linguistic wealth but also as a reflection of the people’s socio-cultural life, economic practices, and speech culture. In this way, the place of market lexicon within the lexical-semantic layer of the Uzbek language is defined, creating a basis for shaping it as a separate field of study in the future.

* Qarshi davlat universiteti doktoranti, aimatovas208.4@gmail.com

Keywords: Uzbek market lexicon, expressions, phraseological units, metaphor, hyperbole, irony, linguoculturology, semantic layer, oral speech, speech units, colloquial style.

O‘zbek xalqi hayotida bozor qadimdan nafaqat savdo-sotiq joyi, balki ijtimoiy muloqot, axborot almashish va madaniy an‘analarni saqlash maskani bo‘lib kelgan. Har bir bozor o‘ziga xos muhitga ega bo‘lib, unda xaridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi bahs-munozaralar, qizg‘in savdolashuv, qimmat va arzonlik haqidagi gap-so‘zlar o‘z ifodasini topgan. Shu jarayonlarda xalqning nutqiy tajribasi ham shakllanib, bozor tiliga xos maxsus leksik birliklar paydo bo‘lgan. Bozor muhitida ishlatiladigan bunday birliklar asosan **iboralar** shaklida bo‘lib, ular xalqning iqtisodiy va maishiy hayotini, kundalik ehtiyojlarini, savdo-sotiqdagi turli vaziyatlarga munosabatini aks ettiradi.

Ushbu **maqolaning maqsadi** – o‘zbek an‘anaviy bozorlarida og‘zaki so‘zlashuv jarayonida faol qo‘llaniladigan xalqona birliklarni to‘plash, ularning ma‘no-mohiyatini sharhlash va ilmiy asosda tahlil qilishdir. O‘zbek tilshunosligida bozor nutqiga oid bunday birliklar ko‘proq frazeologiya, maqol va matallar doirasida qisman o‘rganilgan. Ammo ular alohida **“bozor leksikasi”** sifatida tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Shu bois bozor muhitida shakllangan og‘zaki nutq birliklarini yig‘ish, tahlil qilish va ularning tilshunoslikdagi o‘rnini aniqlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Bozor muhitida qo‘llaniladigan so‘z va iboralar adabiy til birliklaridan ko‘ra jonliroq, obrazliroq bo‘lib, ular xalq nutqining o‘ziga xos qatlamini tashkil etadi. Bozor muhitida narx va qiymat eng asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Xaridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi har qanday muloqot, avvalo, mahsulotning arzon yoki qimmatligi haqidagi gap-so‘zlardan boshlanadi. Shu sababli o‘zbek xalq tilida narxni ifodalovchi, uni kinoya yoki mubolag‘a vositasida tasvirlaydigan ko‘plab iboralar shakllangan.

Masalan, haddan tashqari qimmat narsaga nisbatan ishlatiladigan **“otning kallasiday narx”** jumlasini sotuvchi qo‘ygan narxni tanqid qilganda yoki istehzoli tarzda qo‘llaniladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu jumla metafora va mubolag‘a asosida shakllangan xalqona frazeologik birlik bo‘lib, so‘zlashuv uslubida jonli qo‘llaniladi. Bunday birliklar faqatgina bozor hayotini emas, balki xalqning dunyoqarashini, ijtimoiy munosabatlarini ham yoritadi.

“Falon narsaning narxi ko‘kka chiqdi” iborasi ham og‘zaki nutqda narxning keskin oshishini, odatdagidan ancha yuqori bo‘lib ketganini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan, **“Bugun piyozning narxi ko‘kka chiqdi”** deganda bozorda piyozning narxi keskin oshganligi nazarda tutiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu ibora metafora va mubolag‘aning uyg‘unligidan tashkil topgan. Shuningdek, xalqning

iqtisodiy tajribasidan kelib chiqib, oddiy *“qimmatlashdi”* soʻzidan koʻra taʼsirchanroq va ifodalibroq nutqiy vosita sifatida shakllangan.

“Bir pulga qimmat” iborasi oʻzbek xalq nutqida qadimdan qoʻllanilib, uning mazmunida kuchli kinoya va istehzo yotadi. *“Bir tiyinga qimmat”*, *“bir chaqaga qimmat”* shakllari ham mavjud boʻlib, qadrsiz, foydasiz, sifat jihatidan past yoki umuman kerak boʻlmagan narsani ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, bozorda xaridor sifat jihatidan yomon, lekin narxi qimmat koʻrsatilgan mahsulotga nisbatan shu iborani qoʻllaydi. Shuningdek, inson faoliyati, mehnati yoki gap-soʻzlari foydasiz boʻlib chiqqanda ham shu ibora qoʻllaniladi. Demak, iboraning asosiy vazifasi – narsaning qiymati bilan uning haqiqiy foydasi orasidagi nomutanosiblikni ochib berishdir.

Bozor hayotida mahsulotlarning qadri faqat ularning narxi bilan emas, balki topilish darajasi va noyobligi bilan ham belgilanadi. Shu bois xalq ogʻzaki nutqida kamyob, topilishi qiyin yoki juda qimmatli mahsulotlarni ifodalash uchun bir qator obrazli iboralar shakllangan. Masalan, *“anqoning urugʻi”* iborasi oʻzbek xalq nutqida juda kam uchraydigan, topilishi mushkul narsalarga nisbatan qoʻllaniladi. Bu ibora Sharq mifologiyasida tilga olinadigan afsonaviy qush – *anqo* obraziga borib taqaladi. Anqo koʻzga koʻrinmaydigan, qoʻlga tushmaydigan qush sifatida tasvirlangan. Shuning uchun uning *“urugʻi”* haqida gapirish xalq tasavvurida mavjud boʻlmagan darajadagi noyoblikni ifodalash uchun xizmat qilgan. Shunday qilib, *“anqoning urugʻi”* deganda oddiy kamyoblik emas, balki afsonaviy darajada topilishi imkonsiz narsa nazarda tutiladi.

Bozor muhitida bu ibora ayniqsa keng ishlatiladi. Sotuvchi mahsulotning mavsumiy tanqisligini taʼkidlash uchun *“Bu yil bu ziravor anqoning urugʻi boʻlib qoldi”* desa, xaridor esa qidirib topolmagan tovari haqida *“Yaxshi xurmo anqoning urugʻi boʻlib ketibdi”* deya shikoyat qilishi mumkin. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan *“anqoning urugʻi”* iborasi metafora va mubolagʻa asosida shakllangan xalqona frazeologik birlikdir. Uning badiiy taʼsiri *“kam uchraydigan”*, *“noyob”* soʻzlaridan ancha kuchli boʻlib, nutqda obrazlilikni kuchaytiradi. Shu sababli bu ibora xalq tilida hanuzgacha faol yashab kelmoqda va bozor nutqining jonli namunasiga aylangan.

“Barmoq bilan sanarli” iborasi ham soni juda oz, koʻpchilikka yetmaydigan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu iboraning asosida xalqning kundalik tajribasidan kelib chiqqan obrazli taqqoslash yotadi. Insonning qoʻlida besh barmoq boʻlgani uchun oz miqdordagi narsani *“barmoq bilan sanash mumkin”* degan ifoda orqali tasvirlash xalq nutqida odatiy boʻlib qolgan. Bozor muhitida bu ibora kam uchraydigan, tez tugab qoladigan yoki cheklangan miqdordagi mahsulot uchun qoʻllaniladi. Nutqda bunday iboralar nafaqat sonni, balki oʻsha narsaning qadrini ham bilvosita taʼkidlaydi, chunki kamyoblik odatda qadrilik bilan bogʻliq.

Bozor muhitida savdo-sotiq bilan bir qatorda o'g'rilik va bezorilik ham qadimdan mavjud hodisadir. Ayniqsa, gavjum bozorlar, olomon orasida mayda o'g'rilar va firibgarlar faoliyati tilimizda maxsus nomlar bilan ifodalangan. Ushbu birliklar xalqning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan bo'lib, ular umumiy "o'g'ri" so'zidan farqli ravishda aniqroq va jonliroq ma'no beradi. Masalan, "**kissavur**" so'zi odamlarning cho'ntagini kovlab, pul yoki mayda buyumlarini yashirincha o'g'irlovchi shaxsni anglatadi. "**Cho'ntakkesar**" esa cho'ntakni pichoq yoki qaychi yordamida kesib, ichidagi narsani o'g'irlovchi kishini bildiradi. Bu so'z ham ma'noda aniqroq bo'lib, o'g'rilikning usulini ko'rsatadi.

Demak, "**kissavur**" va "**cho'ntakkesar**" bozor sharoitida uchraydigan o'g'rilik turlarini bildiradi. Bozor sharoitida odamlar kimdan ehtiyot bo'lishini aniq bilishi uchun maxsus nomlarni shakllantirgan. Shu bois "*Bozorda kissavur ko'payibdi*" yoki "*Cho'ntakkesarlardan ehtiyot bo'ling*" kabi ogohlantirishlar xalq og'zaki nutqida keng tarqalgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu so'zlar kompozit birliklar bo'lib, semantik differentsiatsiya mahsuli hisoblanadi. Ular ijtimoiy zarurat tufayli yuzaga kelib, bozor hayotida tilning aniqligi, ogohlantiruvchanligi va amaliy qiymatini ta'minlagan. Shu sababli "**kissavur**" va "**cho'ntakkesar**" so'zlarini faqat oddiy leksik birlik emas, balki bozor madaniyatining lingvistik belgisi sifatida ham o'rganish lozim.

Bozor tilida narx, arzonlik yoki qimmatlikni ifodalovchi birliklardan tashqari savdo-sotiq jarayonining o'ziga xos tomonlarini yoritadigan ko'plab so'z va iboralar mavjud. Ular xaridor va sotuvchining muomala uslubi, savdolashuv jarayoni, mahsulotni ta'riflash yoki uni o'tkazish maqsadida qo'llaniladi.

"**Ko'zni qamashtiruvchi**" jumlasini o'zbek tilida asosan juda chiroyli, yorqin, diqqatni tortadigan narsalarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Jumlaning semantik asosida yorug'likning kuchli ta'sirida ko'zning qamashishi yotadi. Biroq bozor tilida bu ibora faqat chiroy yoki jiloga oid emas, balki savdo-sotiqdagi reklama unsurlarini ifodalash uchun ham keng qo'llaniladi. Sotuvchilar mahsulotlarini tezroq sotish, xaridorni o'ziga jalb qilish maqsadida ularni haddan tashqari maqtovlar bilan ta'riflaydi. Masalan, matoni "*ko'zni qamashtiruvchi atlas*" deb sotuvchilar xaridorni o'ziga og'dirishga harakat qiladi. Bu holda ibora mahsulotning asl sifatidan ko'ra uning tashqi jilosi va sotuvchining nutqiy mahorati bilan bog'liq bo'ladi.

"**Ko'r-ko'rona olish**" iborasi hech o'ylamasdan, savdolashmasdan biror narsani sotib olishni bildiradi. O'zbek bozor madaniyatida xaridor odatda mahsulotni ko'radi, sifatiga baho beradi, narxini taqqoslaydi va kamida biroz savdolashadi. Agar u bularning birortasini qilmasa, sotuvchining aytganiga ishonib xarid qilsa, xalq bunday vaziyatni "*ko'r-ko'rona olish*" deb ta'riflaydi. Bu ibora odatda salbiy baho sifatida ishlatiladi, ya'ni xaridor hushyor bo'lmay, o'zining aldanishiga yo'l qo'yganini anglatadi. Demak, bu ibora bozor muhitida nafaqat xaridorning

e'tiborsizligini bildiradi, balki xalqning uzoq yillik iqtisodiy tajribasi asosida shakllangan ogohlantiruvchi nutqiy birlik sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Bu birliklarning barchasi xalq tilida jonli, ta'sirchan va ifodali nutq yaratishga xizmat qiladi. Shu tariqa bozor leksikasi nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki xalqning estetik qarashlari va nutqiy mahoratini ham yoritib beradi. Tilshunoslik uchun bunday birliklarning qimmatini shundaki, ular tilda ijtimoiy muhit va real hayot hodisalari qanday aks etishini ko'rsatadi. Shu ma'noda bozor leksikasini tadqiq qilish faqat til boyligini hujjatlashtirish emas, balki xalq madaniyati va turmush tarzini o'rganishning samarali yo'lidir.

O'zbek an'anaviy bozorlarida shakllangan og'zaki nutq birliklari xalq tilining jonli, obrazli va rang-barangligini ko'rsatadi. Savdo jarayonida qo'llaniladigan bu kabi iboralar alohida lug'atlarda to'liq qayd etilmagan bo'lsa-da, ular o'zbek xalq tilining muhim qatlamini tashkil etadi. Tilshunoslikda ular ko'pincha so'zlashuv uslubi yoki xalqona leksika sifatida izohlangan, ammo bozor nutqi kontekstida ularni tizimli o'rganish hali keng yo'lga qo'yilmagan. Demak, bozor muhitiga xos birliklarni yig'ish va tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyat va xalq etnografiyasini o'rganishda ham katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Jumaqulova Sh. (2022). Frazеologik birliklar va ularning turlari // *Collection of scientific papers "SCIENTIA"*.

Khursanov N. (2024). O'zbek muloqot diskursida frazeologik birliklarning o'rganilishi // *NamDU ilmiy axborotnomasi*.

Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. (2022). *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Turaboyeva L. (2022). O'zbek tilida frazeologiya masalalarining tadqiqiga doir // *"Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari*.

O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildlik. (2006–2008). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

Рахматуллаев Ш. (1978). *Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати*. Тошкент: Ўқитувчи.

O'zbek tilining izohli lug'ati // O'zbek tilining onlayn lug'ati portali. URL: <https://izohli-lug'at.uz> (murojaat qilingan sana: 2025.25.08).

Frazеologik birliklar // Ziyonet: O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali. – URL: <https://www.ziyonet.uz> (murojaat qilingan sana: 2025.25.08).